

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQIY KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA O‘YINNING AHAMIYATI

Andijon davlat universiteti Pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim nazaruyasi kafedrası o‘qituvchisi
To‘xliboyeva Zuxra Abdumutal qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqiy xususiyatlari, nutq kamchiliklari hamda ulardagi nutq nuqsonlarni bartaraf etishda o‘yining ahamiyat haqida so‘z boradi

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, bola, nutq, nuqtiiy kamchilik, nutq nuqsoni, nutqiy xususiyatlar, o‘yin

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, hozirgi kunda Respublika-mizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar natijasida makabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi, huquqiy-meyoriy, metodik ta’minot jihatdan bosqichma-bosqich musahkamlanib bormoqda. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish vositalaridan yana biri o‘yinlar hisoblanadi.

Shu o‘rinda muhtaram Prezidentimizning mazkur fikrlarini keltirishimiz maqsadga muvofiqdir. “Bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondosha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularning ongi va tafakkurini go‘dakligidan to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo‘ladi”. Shu kunlarda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tarbiyachilarning malakasi oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ldi. Qiziqishimiz, bor diqqat e’tiborimizni qaratmog‘imiz lozimdir. Shu o‘rinda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni keng qamrovli bilimlarini o‘zlashti-rishlari hamda mustaqil fikrlay oladigan yetuk shaxslarni tarbiyalash pedagoglar tomonidan olib boriladigan ta’limiy faoliyatlarining samarali tashkil etilishiga bog‘liqdir. Maktabgacha ta’limda olib boriladigan nutq o‘stirish faoliyatlarining ahamiyati shundan iboratki, bolalarning o‘z atrof-dagi insonlar bilan muloqotga kirishishida, o‘z fikr va mulohazalarini o‘zgalarga bildirishida, kattalar va tengdoshlari muloqotiga taqlid qilishida, o‘z xohish va istaklarini namoyon qilishida, tengdoshlari bilan muloqotga kirishish va ular bilan munosabat o‘rnatishida, o‘zini o‘zi baholashida, eng asosiysi mustaqil fikrlash qobiliyatlariga ega bo‘lishida nutq o‘stirish mashg‘ulotlarining o‘rni beqiyosdir. Nutq nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida balki butun bir insoniyatning jamiyatda yashashi, o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyatga egadir.

O‘yin bola hayotining uzviy qismidir. Bolalarning o‘yin dunyosi boy va xilma–xildir. Nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan faoliyatlarda o‘yin usullari hamda elementlaridan foydalanish samarali natija beradi va shu sababdan keng qo‘llaniladi. Shu sababli o‘yin faoliyatidan keng foydalanish orqali bolaga har tomonlama ta’sir etish mumkin. O‘yin bolaning aqliy rivojlanish vositasidir. O‘yin vaqtida xilma – xil aqliy jarayonlar faollashadi, o‘yinning vazifa va shartlari esa diqqatni to‘plash, analizatorlarni farqlash, taqqoslash, umumlash-tirish jarayonlarining faollashuvini talab etadi. Bir xildagi harakat va so‘zlarning ko‘p takrorlanishi bola ongida narsa va hodisalar haqidagi mustahkam bog‘lanishlar hosil qiladi, muayyan fikr, xatti – harakatlarning tarkib topishiga yordam

beradi. “O‘yin – sinchkovlik va qiziquvchanlik olovini o‘t oldiruvchi uchqundir”, degan edi V. A. Suxomlinskiy.

O‘yin bolalarning har tomonlama kamol topishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘yin vaqtida bolalarning sezgi, idrok, tafakkur, hayol, xotira, diqqat, iroda, xissiyot va boshqa ruhiy jarayonlari ishtirok etadi. O‘yinlar bolalarning aqliy faoliyatini o‘stirishga, ularning fikriy tashabbuskorligini oshirishga xizmat qiladi.

Biz bilamizki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etishda asosan tarbiyachi nutq o‘stirish va savodga tayyorlash faoliyatlari davomida o‘yinlardan foydalanadi. Misol uchun “Qog‘irchoq Olima ovqatlanyapti”, “Qo‘g‘irchoq sayrga otlanyapti”, “Kim qanday o‘ylaydi”, “Qaydi shamol”, “Ayiqcha biznikiga mehmonga keldi”, shuningdek, “Ortiqchasi top”, “Ajoyib xaltacha” kabi o‘yinlar shular jumlasidandir. Bunday didaktik o‘yinlar asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini shakllantirish, tovushlarni aniq talaffuz qilish ustida ishlash, lug‘at boyligi oshirish hamda nutqiy kamchiliklarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

“QUVNOQ QAYIQCHAM”



Maqsad: Har bir bolani bir nafas chiqarishda “ f “tovushini to‘g‘ri talaffuz qilish yoki bir nafas chiqarishda “ p “ (p-p-p) tovushini qayta-qayta talaffuz qilish ko‘nikmasiga erishish.

Kerakli jihozlar: suv havzani (suv to‘ldirilgan idish), qog‘ozli qayiqchalar tayyorlanadi.

O‘yin jarayoni: Bolalar katta yarim doira shaklda o‘tirishadi. Markazda stul ustida suv to‘ldirilgan idish bo‘ladi. Qayiqchalar suvga qo‘yiladi. Chaqirilgan bolalar stullarga o‘tirgan holatda f yoki p tovushlarni talaffuz qilib, qayiqchalarni puflab harakatlantirishadi. O‘yin qiziqarli tus olishi uchun tarbiyachi markazlarni belgilab, nomlaydi. (mazkazlar shahar nomlari bilan nomlanadi. Masalan: Soliha puflagan qayiqcha Samarqand yetib keldi kabi). Kimning qayiqchasi qayerga suzib borganini aniqlash uchun. Bu jarayon bolalar

tomonidan tartib bilan birin - ketin davom etadi.

Metodik ko‘rsatma: O‘yin jarayonida F tovushini talaffuz qilayotganda yanoqlar bilan puflamaslikka ishonch hosil qiling. shunday qilib, bolalar bir nafas chiqarishda p tovushini 2-3 marotaba talaffuz qiladilar va talaffuz jarayonida lablar ishtirokini ta‘minlashga ahamiyat qaratish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq kamchiliklari ustida ishlash jarayonida nutq kamchiliklarini kelib chiqish sabablari, mexanizmlari va tuzilishi, alomatlarini aniqlash, bu masala yuzasidan ota-onalar bilan tushuntirish ishlari olib borilsa foydali natijalar beradi. Nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish prinsiplari, metodlarini va vositalarini ishlab chiqish, nutq buzilishlarini oldini olish metodlarini takomillashtirish va hamkorlik ishlarini to‘g‘ri tashkillashtirish tarbiyachilarni metodik mahorati oshirilsa, yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirilsa, shuningdek faoliyatlar asosan nutq o‘stirish hamda savodga tayyorlash va boshqa faoliyatlar noan‘anaviy tashkil etilsa bolalar orasida uchraydigan nutq kamchiliklarini bartaraf qilishda katta yutuqqa erishiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak nutq kamchiliklarini bartaraf etishda qulay va samarali usullardan hamda foydalanishning muhim ahamiyati katta ekan. Biz bo‘lg‘usi pedagoglar sifatida hamda barkamol avlod tarbiyachisi sifatida buni yaxshi bilmog‘imiz va tarbiyaviy

ish jarayonini va o’qitishni shu asosda tashkil etishni o’rganmog‘miz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev O‘RQ 637-sonli 2020- yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori.
3. O‘zbekiston respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019- yil 22- oktyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan. №O‘RQ-595 (18.06.2020 y. kundan kuchga kiradi).
4. O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018 yil 4 iyuldagi 1450-sonli “O‘zbekiston respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Buyrug‘i. QHMMB: 10/18/3032/1450-son. 04.07.2018 y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida 802-sonli qarorining birinchi ilovasida “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Ilk qadam” takomillashtirilgan davlat o‘quv dasturi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 14 fevral kuni maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan
8. Ayupova M. “LOGOPEDIYA” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent - 2019
9. ,Rahimova V. S. “Defektologiya asoslari” . Toshkent - “Voriz- nashriyoti” 2012 y
10. Mo‘minova L, Ayupova M, Nurkeldieva D, Kalbaeva X. “Maxsus pedagogika”, “Noshir”. Toshkent - 2012 y.
11. Shamuratova Z. “ Logopediya me’yoriy talaffuzga o‘rgatish”, “Niso poligraf”. Toshkent - 2012 y.
12. Shomahmudova R. “ To‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutq o‘stirish” “Ilm-ziyo” nashriyoti. Toshkent - 2013 y.
13. Shodiyeva Q. “Nutq o‘stirish uslubyoti”, “O‘qituvchi nashriyot - matbaa ijodiy uyi,Toshkent - 2009 y.
14. Hasanboyeva O.U. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Ilm-ziyo, Toshkent - 2012 y.
15. A.V.Kayumov “Pedagogik diagnostika va korreksion pedagogika” o‘quv uslubiy majmua 2019 y.
16. Qoridova F. R, Fayzullayeva M, Rustamova M, Raximova Z, Fayziyeva Z. “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish” - Toshkent - 2011 y.
17. Nurmonov Sh, Iskandarov Sh. “Umumiy tilshunoslik”- Andijon - 2007 y
18. Ne‘matov X, Bozorov O. “Til va nutq” - Toshkent. “ O‘qituvchi” 1993 y.
19. Saidahmedov N. “Yangi pedagogik texnologiyalar” T., “O‘qituvchi” 2002. y